

XALQARO MUNOSABATLARDA – O'ZBEKISTON VA XITOIY

Jo'rayeva Sevara Baxodirovna

Toshkent texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti talabasi.

sevarajoraeva085@gmail.com

Saydahmatxonova Asalxon Sirojiddin qizi

Toshkent texnologiya menejment va kommunikatsiya instituti talabasi

saidahmadxonovaa@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15049693>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston va Xitoy munosabatlarining tarixiy ildizlari va bugungi kundagi aloqalar, bu aloqalarda iqtisodiy munosabatlarning o'rni haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. O'zbekistonning tashqi siyosatida Xitoy bugungi kunda juda muhim rol o'ynamoqda. Xitoy bilan o'rnatilayotgan munosabatlar va tuzilayotgan bitim va sherikchilik aloqalari O'zbekistonning nafaqat iqtisodiy balki, siyosiy, ijtimoiy sohalariga ham ulkan hissa qo'shmoqda. O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda bo'sh ish o'rinlarining yaralishi, iqtisodiy o'sish va katta investitsiyalar, ijtimoiy-madaniy rivojlanish, yosh kadrlar bilan ishlash va talabalarining o'qishlari uchun ham qulay vizasiz kirish imkoniyatlari albatta Xitoy bilan tuzilayotgan shartnoma va ikki xalqning hamdo'stligi haqidagi fikr-mulohazalar ushbu maqolada yoritildi.

Kalit so'zlar: Iqtisodiy sohalar, siyosiy sohalar, xalqaro bitim, tranzit, viza, xalqaro hamkorlik, suverenitet, xalqaro huquq, Buyuk Ipak yo'li, transport aloqalari.

В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ – УЗБЕКИСТАН И КИТАЙ

Аннотация. В этой статье рассматриваются исторические корни и современные отношения между Узбекистаном и Китаем, подчеркивая роль экономических связей в этих отношениях. Сегодня Китай играет важнейшую роль во внешней политике Узбекистана. Установление отношений, заключение соглашений и партнерств с Китаем значительно способствуют не только экономике Узбекистана, но и его политической и социальной сферам. Сотрудничество с Китаем способствует созданию рабочих мест, экономическому росту, привлечению крупных инвестиций, социально-культурному развитию, а также предоставляет возможности для молодых специалистов и студентов, включая безвизовый въезд для обучения. Эти аспекты, а также дружеские отношения между двумя народами, раскрыты в данной статье.

Ключевые слова: экономические сферы, политические сферы, международные соглашения, транзит, виза, международное сотрудничество, суверенитет, международное право, Великий шелковый путь, транспортные связи.

IN INTERNATIONAL RELATIONS – UZBEKISTAN AND CHINA

Abstract. This article discusses the historical roots and current relations between Uzbekistan and China, emphasizing the role of economic relations in these ties. Today, China plays a crucial role in Uzbekistan's foreign policy. The establishment of relations and the agreements and partnerships formed with China significantly contribute not only to Uzbekistan's economy but also to its political and social spheres. The cooperation with China has led to job creation, economic growth, major investments, social and cultural development, and opportunities for young professionals and students, including visa-free entry for education. These aspects, along with the friendly relations between the two nations, are explored in this article.

Keywords: economic sectors, political sectors, international agreements, transit, visa, international cooperation, sovereignty, international law, Great Silk Road, transport connections.

O'zbekiston va Xitoy qadim davrlardan beri birgalikda siyosiy-iqtisodiy faoliyatlarni amalga oshirib kelmoqda. Har ikki xalq uzoq o'tmishga borib taqaladigan boy tarixiy merosga ega. Buyuk Ipak yo'li savdo yo'llari ushbu ikki xalqning rivojlanishiga va xalqaro munosabatlarda o'rin tutishiga sabab bo'lgan. Undan oldingi davrlarda ham Xitoy va O'zbekiston o'rtasida elchilik aloqalari mavjud bo'lgan. Jumladan, O'zbekistondan yirik ajdodlarimiz Umar ibn Kamoliddin Buxoriy, Maxmud Xorazmiy kabi olimlarimiz Xitoyga borib faoliyat yuritishgan. Tib ilmining Xitoyga tarqalishi ham o'z davrining yirik qadamlaridan bo'lgan. Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi siyosiy-diplomatik aloqalarni biz Turkiston Xoqonligi, Qoraxoniylar hukmronligi, Temuriylar davlati, Buxoro amrligi va Chin imperiyasi aloqalarida ham uchratganmiz. Ma'lumki, bu aloqalar hali ham ikki davlat orasida saqlanib kelinmoqda. Bugungi kundagi siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy aloqalar mamlakatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston va Xitoy aloqalari sezilarli darajada ortmoqda, binobarin, oliy darajadagi muzokaralardan so'ng ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi, qo'shma bayonat imzolanishi va shu kabi o'zaro manfaatli hamkorliklar bo'lib o'tdi. Hozirda Xitoy O'zbekiston tashqi siyosatida muhim o'rin tutadi. U mamlakatimizning strategik sheriklaridan biri va eng asosiy savdo iqtisodiy hamkori hisoblanadi. Savdo- iqtisodiy sohada dinamik o'sish barcha jabhalarda namoyon bo'layotganini ko'rmoqdamiz.

Jumladan, 2024-yilning iyun oyidan O'zbekiston, Qirg'iziston va Xitoy hukumatlari temiryo'l loyihasi hamkorligi to'g'risidagi uch tomonlama bitimni imzoladi. 27-dekabrda qurilishi ko'zda tutilgan ushbu loyiha 2035-yilga kelib tarmoqdagi o'rtacha yillik tashish hajmi 5million tonnani tashkil etadi. Bu strategik ko'priq orqali davlatlararo iqtisodiy aloqalar mustahkamlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.01.2025- yilgi qaroriga muvofiq, 2030-yilgacha belgilangan transport – logistika tizimini rivojlantiruvchi ustuvor yo'nalishlar:

1. Xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish
2. Tashqi bozorlarga yuklarni yetkazib berish muddatini qisqartirish
3. Moslashuvchan tarif siyosatini qo'llash va Bojxona tartib-tamoyillari soddalashtirish yo'li bilan qo'shimcha tranzit yuki oqimlarini jalb etish va shu kabi ko'plab rejalar ko'zda tutilgan.

Shunga ko'ra, qurilishi kutilayotgan loyiha "asr qurilishi" yuqorida keltirilgan qarorni amalga oshirishda keng ko'lamli imkoniyatlar yaratib beradi.

Oxirgi yillarda nafaqat davlatlar, hukumatlar darajasida, balki hududlararo hamorlik aqalari ham rivojlanib bormoqda. Bo'lib o'tayotgan uchrashuvlarda hamkorlikni davom ettirish va yanada kengaytirish ikki tomonlama ham manfaatli ekanligi qayd etilmoqda. Yetakchilar huzurida quyidagilar imzolandi:

- O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati o'rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;
- O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati o'rtasida texnik-iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim;
- O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati o'rtasida inson resurslarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitim;
- O'zbekiston Respublikasi Hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati o'rtasida davlat ilmiy-tadqiqot muassasalari hamkorligi to'g'risida bitim;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Ta'lim vazirligi o'rtasida xitoy tilini o'qitish sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;
- O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Bojxona bosh boshqarmasi o'rtasida O'zbekistondan Xitoyga no'xat eksport qilishda fitosanitar talablar va nazorat to'g'risida bayonnoma;

– O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Islohotlar va rivojlanish davlat qo‘mitasi o‘rtasida Xitoy – Markaziy Osiyo – Yevropa temir yo‘l ekspresslari bo‘yicha hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risida bayonnoma;

– O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Tijorat vazirligi o‘rtasida yangi elektr transport vositalari sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida bayonnoma;

– O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Qishloq xo‘jaligi va qishloq masalalari vazirligi o‘rtasida kambag‘allikni qisqartirish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida ahdlashuv bayonnomasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Fan va texnologiyalar vazirligi o‘rtasida ilmiy-texnik hamkorlikni yanada mustahkamlash to‘g‘risida hamkorlik bayonnomasi;

– O‘zbekiston Respublikasi Texnik tartibga solish agentligi va Xitoy Xalq Respublikasi Standartlashtirish ma‘muriyati o‘rtasida standartlashtirish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnoma;

– O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va Xitoy fuqarolik aviatsiyasi boshqarmasi o‘rtasida “Havo ipak yo‘li”ni birgalikda barpo etish to‘g‘risida kelishuv;

– O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi va Xitoy Xalq Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi o‘rtasida 2024-2026-yillarda turizm sohasidagi hamkorlik rejasi;

– Toshkent viloyati va Shensi muzofoti o‘rtasida sheriklik aloqalarini o‘rnatish to‘g‘risida bitim;

– Samarqand va Sindao shaharlari o‘rtasida sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida bitim va boshqalar.

Ushbu bitimlar yurtimizda nafaqat iqtisodiy rivojlanishga balki, siyosiy jihatdan ham yuksalishga xizmat qiladi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, siyosiy aloqalar davlatlararo kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarning oldini olish uchun yechim bo‘la oladi.

O‘zbekiston va Xitoyning Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab uzviy tarixiy rishtalar bog‘lanib turadi. Madaniyatlar, an‘analar, mentalitet va qadriyatlarning o‘xshashligi ham birlashtiradi. Bu nuqtai-nazardan tomonlar xalqlar o‘rtasidagi yaqin madaniy hamkorlikni hamda turizmni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

Hozirgi kunda, O'zbekiston va Xitoy o'rtasida turizmni rivojlanishi uchun Xitoyning vizasiz rejimi 2025-yilning birinchi yarmidan boshlab kuchga kiradi. Shuningdek, 2024-yilning 1-dekabr kunda Chendu shahrida "Xitoy Xalq Respublikasi hukumati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumati o'rtasida o'zaro vizasiz rejim to'g'risida" gi bitim imzolandi. "Bu hujjat aloqalarimizni yanada faollashtirish, savdo aylanmasini oshirish va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirish yo'lidagi yana bir muhim qadamdir" deb ta'kidladi Tashqi Ishlar Vaziri Baxtiyor Saidov.

O'zbekiston bugungi kunda xalqaro munosabatlarda buyuk qadamlarini olg'a bosmoqda. Bugun biz bu qadamlarning birini ya'ni O'zbekiston-Xitoy aloqalarini ko'rib chiqdik. Zero, har bir yangi qadam bugungi kunda yurtimizni rivojlantirish uchun tashlanayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Yangi O'zbekistonning yuksalishini biz har jabhada ko'rmoqdamiz. Mustaqil yurtimiz o'zini iqtidodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda qo'ygan buyuk qadami yuksak marralarga qadar yetib bormoqda. Ko'rinib turibdiki, ushbu elchilik aloqalari tufayli O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti rivojlanib, ish o'rinlari kengaymoqda. Bu yurtdoshlarimiz uchun juda ham yaxshi imkoniyatdir.

Bundan tashqari talabalar uchun ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Kadrlar almashinuvi, ilm-fanning rivojlanishi ikki xalqning ham siyosiy-iqtisodiy, ham madaniy- ijtimoiy rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Zero, buyuk Osiyo davlatlari qadim tarixlardan beri bir-biri bilan ulkan g'oya va maqsadlar yo'lida birlashar ekan , O'zbekiston ushbu jarayonni hali ham davom ettirmoqda va yetakchilikni qo'lga olmoqda.

REFERENCES

1. <https://president.uz;>
2. <https://parliament.gov.uz;>
3. www.gazeta.uz;
4. "O'zbekiston-Xitoy munosabatlari tarixidan", Fan Ziyosi nashriyoti 2022. Toshkent davlat Sharqshunoslik Universiteti kitobi.